

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA “GALERIYA” METODINING
QO’LLANILISHI

Ergasheva Zulhumorhon Toshtemirovna

*Andijon viloyati Shahrixon tumani 13-umuniy orta ta’lim maktabi
Ona tili va adabiyot fani oqituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada bugungi kun zamon talablariidan hisoblanmish innovatsion metodlardan biri, Galeriya usuli haqida to’liq ma’lumotlar berilgan. Ushbu metodning ona tili va adabiyot darslarida foydalanish haqida ko’rsatmalar berilib, misollar orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar: metod, dars, ishtrok, qadam, o‘qituvchi, guruh, variant, g‘oya.

Bugungi kun ta’lim jarayoni har bir ustoz va murabbiydan yuksak mahorat, izlanuvchanlik, zukkolikva zamonaviylikni talab etadi. Ta’lim sohasida soat sayin amalga oshirilayotgan yangilik va innovatsialar bir xil qolipda qotib qolmasdan, harakat qilishga undaydi. hozirgi vaqtida turli zamonaviy metodlar asosida dars jarayonlarini olib borish tizimda keng yo’lga qo‘yilmoqda. Ushbu zamonaviy metodlar asosida o‘qitish esa ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib kelmoqda. bugungi globallashuv jarayonida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarining nazariy va amaliy malakalarini shakllantirish maqsadida zamonaviy metodlardan foydalanishni zamon taqozo etmoqda. Quyida shunday metodlardan foydalanish yo’l-yo‘riqlari ochib berilgan.

“Galeriya” metodini darsga tadbiq etish.

“Galereya” metodi va uni amalga oshirish bosqichlari.

“Galereya” usuli kichik guruhlarda birdaniga bir nechta masalani muhokama qilish imkonini beradi. bunda guruhning har bir a’zosi barcha taklif etilgan masalalar muhokamasida ishtirot etishi va o‘z ulushini qo’shishi mumkin.

1-qadam. Masalani qo‘yish. O‘qituvchi har bir guruhga ma’lum muammo yoki masalani beradi.

2-qadam. Har bir guruh o‘z masalasi ustida ishlash. Masalalar ustida ishlash kichik guruhlarda amalga oshiriladi (odatda 5-10 daqiqa).

3-qadam. Kichik guruhlar qo’shni guruhlar masalasi yechimini oxirigacha yetkazishga o’tadi. har bir kichik guruh o‘z g‘oyalarini yozgan katta varaqni olmasdan doira bo‘ylab siljiydi. (Variant sifatida guruh siljishi o‘rniga doira bo‘ylab ishlangan g‘oyalar yozilgan katta varaqni uzatish mumkin. bunda charxpalak metodining elementlaridan foydalaniladi)

4-. Qo’shni masalasi yechimiini oxirigacha yetkazibish.

- har bir kichik guruh katta varaqqa yozilgan qo’shni guruh g‘oyalarini o‘rganadi;
- Savol belgisi bilan rozi bo‘lmaganlarni belgilaydi;
- Qo’shni masalasi yechimi bo‘yicha o‘z g‘oyalarini yozadi.

5 daqiqadan keyin guruhlar doira bo‘ylab keyingi kichik guruhga o‘tib, yana joylari bilan almashadi.

Siljishlar soni kichik guruhlar (qo‘yilgan masalalar) soniga teng.

5-qadam. O‘z masalasiga qaytish. Masaladan masalaga doira bo‘yicha o‘tishlar har bir kichik guruh o‘zining dastlabki masalasiga qaytish bilan tugallanadi. Guruhlar katta varaqlarida yig‘ilgan g‘oyalarni o‘rganadilar.

6-qadam. Taqdimot va ish natijalari muhokamasi. har bir guruhdan bir a’zo navbatil bilan o‘zlarining qog‘oz varaqlarida yig‘ilgan natijalar/g‘oyalarni tushuntirish va sharhlar bilan taqdim etadi. Boshqa guruhlar ular taqdimot qilayotgan guruh varag‘iga yozgan g‘oyalarni tushuntiradilar va sharhlaydilar. Zarur hollarda g‘oyalar umumiylar guruhda muhokama qilinishi mumkin. Shuningdek, har bir guruhdan bir ishtirokchi Git vazifasida ishtirok etishi va boshqa guruh vakillariga o‘z muammosining asosiy g‘oyasini tushuntirishi nazarda tutiladi.

Amaliy ish: Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganishda “Galeriya” metodidan foydalanish mashqi.

1. O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi.

2. Guruhlar o‘zlari uchun “Farhod va Shirin” dostoni sujetidan birini tanlaydi va shu yuzasidan ish olib boradi. 3. Tayanch so‘zlar tanlanadi (chin mamlakati, ishq, farhod, Shirin, Mehinbonu, Xusrav, komil inson, tilsim, ko‘zgu, naqqoshlik, me’morlik.) 4.Tezis yoziladi. Masalan: - farhodning dunyoga kelishi;- ilm-hunarni o‘rganishi;- ko‘zguni ko‘rishi;- ishqqa mubtalo bo‘lishi;- Arman yurtiga borishi;- Shirin bilan munosabati ;- Xusrav bilan to‘qnashuvi; -makr-hiyla tantanasi.“Farhod va Shirin dostoni “Xamsa”ning ikkinchi dostoni bo‘lib, u ishqiy- sarguzasht dostondir. Uni muallif “shavq” dostoni deb ataydi. chunki dostonda tug‘ilishdanoq ilohiy ishq ila dunyoga kelgan Farhodning ishqiy sarguzashtlari, majoziy ishqning ilohiy ishqqa aylanishi asos qilib olingan va h.k

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O.U.Avlayev, S.N. Jo‘rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta’lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017
2. Sharipov Sh. S., Aripov M., begimqulov U. Sh. va boshq. bilim olishning intelektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: fan, 2011
3. Роберт И.В., Панюкова С.В., Кузнецов А.А., Кравцова А.Ю. Информационные и ком- муникационный технологии в образовании. – москва: Дрофа, 2007